



**SURXONDARYO VILOYATI KAKAYDI QO`RG`ONIDAGI
XO`JAQISHLOQ HUDUDI SHEVASIDAGI FONETIK
QONUNIYATLAR.**

Abdullayev Islom Yunus o`g`li¹

talaba

islomabdullayev@gmail.com

Ro`ziboyeva Maxliyo G`ulomjon qizi²

talaba

mahliyoroziboya@gmail.com

Xoliqulova Dilovar Faxriddin qizi³

Talaba

dilovarxoliqova@gmail.com

¹⁻²⁻³Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7042534>

ARTICLE INFO

Received: 27th August 2022

Accepted: 30th August 2022

Online: 02nd September 2022

KEY WORDS

Dialektolog, diakritik belgi, fonematik transkripsiya, fonetik transkripsiya, palatalizatsiya, valarizatsiya, trankripsiya, vokalizm, konsonantizm.

O`zbek shevalarining murakkab tarkibga egaligi, avvalo, ukarning fonetik jihatdan rang-barangligi tufaylidir. O`zbek shevalari unli va undoshlar miqdori, sifati, fonetik qonunlar, fonetik jarayonlarning o`ziga xosligi jihatidan o`zaro farqlanadi va, aksincha, ayrim jihatlariga ko`ra ular bir-biri bilan o`xshashlikka ham ega.

Unli va undoshlar tizimi. O`zbek shevalaridagi unli va undosh tovushlarning miqdori va sifati munozarali masalalardan biri hisoblanadi. Buning sababi dialektologiyaga oid ishlarda unli fonemalar haqida fikr yuritilganda, ularning miqdori 18 tagacha yetishi haqida ma`lumotlar berilgan. Aslini olib

ABSTRACT

Sheva bizning hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo`lgan jarayon hisoblanadi, chunki shevalarimizda bizning tariximiz aks etadi. Shevadagi fonetik qonuniyatlar haqida so`z borarkan bu maqolada so`zlarning aytilish va yozilish jarayonlaridagi qonuniyatlar asosida bir-biriga mos kelmasligi, unli va undoshlar tizimi haqida hudud kesimida tahlil qilingan va asoslangan. Bu jarayon unli larni o`rganuvchi mahsus bo`limlarning qonuniyatlariga asoslangan holda tahlil qilinadi. Bundan tashqari maqolada singarmonizm qonunlariga alohida ahamiyat berilgan bo`lib uni talaffuz jarayonida transkripsiya qonunlariga mos kelgan holati aks ettirilgan.

qaraganda shevaar fonetikasi o`rganilganda ularning fonemasi emas, balki konkret nutq tovushlari e`tiborga olinishi lozimligini qayd qilish o`rinlidir.

Vokalizm — unli fonemalar tizimi.¹

a (a) - orqa qator, quyi-keng lablanmagan tovushni ko`rsatadi. Ana, ata, bala

ä (ä) - old qator, quyi-keng, lablanmagan: äkä, änä.

ā (ā) - orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan: āl, bāl.

e (e) – old qator, o`rta-keng, lablanmagan: el, bel, kel.

¹ H.Jamolxonov "Hozirgi o`zbek adabiy tili"



i (*i*) – old qator, yuqori-tor, lablanmagan: bārdi, kirgin, singarmonizimli shevalarda keldi, jetti, bir.

ī (*ī*) – orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan: bārdī, bīqīn; *i* va *ī* unilari singarmonizimli shevalarda qisqa tovushni ifodalaydi bil, qil.

i: (*i:*) - *i* unlisining cho'ziq varianti. Barcha o'zbek shevalarida uchraydi: *ti:l*, *bi:l*.

ī: (*ī:*) – *ī* unlisining cho'ziq varianti: *qī:z*, *qī:ji:q*. Singarmonizimli o'zbek shevalari talaffuzida uchraydi

u (*u*) – orqa qator, yuqori-tor, lablangan: bu, ul, un.

ū (*ū*) – ol qator, yuqori-tor, lablangan: kül, bŭgŭn, tŭn.

o (*o*) – orqa qator, o'rta-keng, lablangan: ot-o't, qol-qo'l, oq-o'q, toq-to'q.

ö (*ö*) – old qator, o'rta-keng, lablangan: böl (bo'lmoq), köl.

ε (*ε*) – ko'proq Namangan shahar shevasida qayd qilinadi. Old qator, o'rta-keng, lablanmagan: *Neme*.

Cho'ziq unililar uchun ikki nuqta qo'llaniladi.

Konsonantizm-undoshlar tizimi.

O'zgaraydigan undoshlar: *b*, *d*, *f*, *g*, *h*, *k*, *l*, *m*, *n*, *p*, *q*, *r*, *s*, *t*, *v*, *x*, *z*;

O'zgaradigan undoshlar:

γ - *g'*;

š - *sh*;

č - *ch*;

j - *y*;

ŋ - *ng*;

ž - *j*;

Transkripsiyada: *b*, *d*, *z*, *m*, *n*, *p*, *r*, *s*, *t*, *sh* undoshlari o'zicha ishlatiladi. Qolgan undoshlar quyidagicha ishlatiladi:

v - lab-lab. Lab-tish "v" alohida tarzda ifodalanadi: *w* (*w*).

y - silliq talaffuz qilinadigan undosh.

g' - chuqur til orqa, sirg'aluvchi undosh.

g'' - chuqur til orqa, portlovchi undosh.

g - sayoz til orqa, portlovchi undosh.

g' - til orqa, sirg'aluvchi tovush.

j - ruscha "j"ga mos undosh.

dj - qorishiq undosh tovush.

q - chuqur til orqa, portlovchi undosh tovush.

k - sayoz til orqa, portlovchi undosh tovush.

k' - "k"dan ko'ra sayozroq yumshoq undosh tovush.

l - til orqa undosh

l' - til oldi yumshoq undosh.

ng - (*n*,) til orqa burun tovushi.

ng - "ng" dan ko'ra sayozroq, yumshoq "ng" undoshi.

ngk - "k" qo'llanilgan "ng" tovush.

f - lab-lab undosh tovushi. Lab-tish "f" ni alohida izohlash kerak.

chsh - qorishiq tovush.

x - chuqur til orqa, sirg'aluvchi undosh tovush.

x' - "x" dan sayozroq, sirg'aluvchi tovush.

qx - chuqur til orqa qorishiq undosh tovush.

h - bo'g'iz tovushi.

O'zbek lahja va shevalaridagi unililar tizimini quyidagi jadval bo'yicha joylashtirishimiz mumkin:

T/R	Hudud	Unlilar miqdori
1.	Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasidagi dialekt va shevalarda	13 ta
2.	Toshkent dialekti shevalarida	6 ta
3.	Samarqand shahar shevasida	6 ta



4.	Qo`qon shevasi	8 ta
5.	Marg`ilon shevasi	8 ta
6.	Chust shevasi	8 ta
7.	Sariosiyo shevasi	8 ta
8.	Qipchoq lahjasidagi shevalarda	11 ta
9.	O`g`uz lahjasidagi shevalarda	11 ta
10.	Turkiston shevalarida	11 ta
11.	Chimkent shevalarida	11 ta
12.	Sayram shevalarida	11 ta
13.	Qarshi shevasi	8 ta
14.	Singarmonizmli shevalarda	11 ta
15.	Singormonizmni yo`qotgan shevalarda	6-7 ta

Fonetik qonunlar. Singormonizm. Singormonizm [Lotincha-unlilarning uyg`unlashuvi] hisoblanadi. Taniqli tilshunos olim I.A.Bogoroditskiyning fikriga ko`ra, singormonizm unlilar uyg`unligi, shuningdek, qisman undoshlarga ham taalluqlidir. Singormonizm qonuni ikki sifat ko`rinishiga ega:

1. Lingval yoki palatal (tanglay) singlarmonizm. Singarmonizmning bu turida so`zning dastlabki bo`g`inida old qator unlilar qatnashgan bo`lsa, keyingi bo`g`inlarida ham old qator unlilar ishtirok etadi, so`zning dastlabki bo`g`inida orqa qator unlilar ishtirok etsa, keying bo`g`inlarida ham orqa qator unlilar unlilar qatnashadi. Bu qonunga ko`ra, so`zning dastlabki bo`g`inida a~a, y~u, o~o, ы~ï; ь~ï unlilaridan biri qatnashsa keying bo`g`inlarida ham ana shu unlilar keladi. Masalan: Bu yerga kel-bi:jaqqa ke:, yugur-jugu:r, yetakla-že:tala, bog`la-bajla:.

2. Labial singlarmonizm. Bu qonun aksariyat turkiy tillarda amal qiladi, ayniqsa, qirg`iz tilining "termin qonuni" hisoblanadi, o`zbek tili va uning shevalarida esa qisman amal qiladi. Bu qonunga ko`ra, so`zning dastlabki bo`g`inida old qator lablangan unli ishtirok etsa, keying bo`g`inlarida ham old qator lablangan unlilar qatnashadi, aksincha,

so`zning dastlabki bo`g`inida lablangan orqa qator unli ishtirok etsa, keyingi bo`g`inlarida ham orqa qator lablangan unlilar qatnashadi. O`zbek shevalarida asosan lab garmoniyasi qonuni so`zlarning dastlabki ikki bo`g`inida qayd qilinadi, uchinchi va to`rtinchi bo`g`inlarda siyrak uchraydi. Misol: bo`libdi-bölipti (so`zlashuvda ixchamlikka erishish uchun böpti shaklida aytishadi. Bu so`z (böpti) hayrlashuv va gapni maqullash maqsadida ham keng foydalaniladi. Misol: 1.Tolib keçga gaplaşamiz, oşna. Aha hop, böpti unda.(hayrlashuv ma`nosida) 2. Aka keçga mo:llarga siz qaraysizmi?!. Böpti me:n qarajman. (gapni maqullash ma`nosida qo`llanyapti.

Singarmonizm qonuni ayni payda unlilarning progressiv assimilatsiyasi deb ham yuritiladi.

Singarmonizmdan chekinish hollari:

1.Shevalarda yuklamalar singlarmonizmga bo`ysunmaydi: qipchoq shevalarida(Kakaydi qo`rg`oni Xo`jaqishloq hududida) kelding-a ~ kadiñ-ä, yurding-a ~ jurdiñ-ä, kulding-a - kuldiñ-ä.

2. Ayrim qo`shimchalar bir variantli bo`lgani uchun singlarmonizmga bo`ysunmasligi mumkin: qipchoq shevalarida (Kakaydi qo`rg`oni Xo`jaqishloq hududida): bora qol ~



borayaj(borag`ay), kela qol ~
kelayaj(kelag`ay), yura qol ~
jurayaj(yurag`ay).

Ushbu hudud shevasida arab, fors, tojik tillaridan o`zlashgan so`zlar singarmonizm qoidalariga bo`ysunadi. Singarmonizmdan chekinish hollari nisbatan kam uchraydi.

Umlaut. Umlaut-unlilarning regressiv assimilatsiyasidir(Y.D.polivanov). Bu

qonunga ko`ra, affiksdafi old qator unli asosdagi (u aksariyat hollarda bir bo`g`inli bo`ladi) orqa qator unlini o`z xarakteriga moslashtirib oladi: son ~ sãn – sana ~ sãnã. Yosh ~ joř – yasha ~ jãřã. Ushbu qonun singarmonizmlai shevalarda umlaut emas, balki singarmonizm qonuniga bo`ysunadi.

References:

1. "O`zbek dialektologiyasi" Ashirboyev Samixon "NAVRO`Z" nashriyoti. Toshkent-2016.
2. Denov tadbirkorlik va pedagogika institute "O`zbek dialektologiyasi" UMK.